

## OYBEKNING "NAVOIY" VA ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY" ROMANLARINI QIYOSIY O'RGANISH ORQALI TALABALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Qodirova Muntazamxon Sharifjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Oybek ijodini sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, uning asarlarida ham ko'plab xalq maqollari, matallari, hikmatli so'zlarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llaganligi, Zamonaviy adabiyotshunosligimiz bugungi kunda o'zgacha bo'y ko'rsatmoqda. Yozuvchilarning o'zgacha uslubi, o'zgacha yondashuvi adabiyotshunosligimiz rivojiga o'z hissasini qo'shib borayotganligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *adabiyotshunoslik, yozuvchi, maqol, uslub, mahorat, yondashuv, roman, hikmatli so'z, asar.*

“Navoiy” romani — 1942-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tomonidan yozilgan tarixiy roman. Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Roman turli qarama-qarshiliklar va muhokamalardan so'ng ilk marotaba 1944-yilda nashr etilgan.

„Navoiy“ tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasi. Roman voqealari 18 yoshli yigit — Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotda qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqealari Navoiyning o'limini aks ettirish bilan yakunlanadi. Asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlarini, ajoyib xislatlarini, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochilib boradi. Romanda Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. Ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadi. „Navoiy“ romani o'zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Asar tili o'tmish davrning jonli tilini yaratish namunalaridan biri bo'lib qoldi, unda besh yuz yil avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta shakllantiriladi.

Oybek Navoiy hayoti va ijodi bilan 30-yillar arafasida faol qiziqqa boshladi. U shu yillarda Yazdiy, Koshifiy, Qazviniy, Muhammad Tolib, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxond singari tarixchi olimlarning asarlarini qunt bilan o'rganishga kirishdi, lekin 20-yillar oxiri - 30-yillarda o'zbek adabiyotida avj olgan noto'g'ri qarashlar tufayli Oybekka ham qator ayblar qo'yildi. Oybek, bir tomoni, o'ziga qo'yilgan aybdan xalos bo'lish uchun “Qutlug' qon” romaniga oddiy kambag'al xalq vakilini bosh qahramon sifatida tanladi. Lekin romanda tasvir etilgan voqealar mantiqi shuni ko'rsatdiki, yo'lchilar tarixning burilish nuqtalarida xalq ommasiga rahbarlik ham qilaolmaydilar, ta'sir ham o'tkaza bilmaydilar. Qolaversa, 30-yillarda oddiy ishchilar va dehqonlar orasidan yetishib chiqqan davlat va mamlakat rahbarlari ham mustabit markaz oldida na el-yurt manfaatini, na o'zlarini himoya qilaolmaydilar. Shuning uchun Oybek xalqqa ham, adabiyotga ham Navoiy singari daholar kerak degan xulosaga keldi.

“Qutlug’ qon romani” hali chop etilmay turib Oybek 1940-yil 6-yanvarda “Navoiy” romani ustida ish boshlab yubordi va uni 1942-yilning qish oylarida tugatdi. Roman turli muhokamalardan o’tib, 1944-yilda nashr etildi.

Oybek ijodini sinchiklab o’rganadigan bo’lsak, uning asarlarida ham ko’plab xalq maqollari, matallari, hikmatli so’zlarni o’z o’rnida mahorat bilan qo’llaganligining guvohi bo’lamiz. Iste’dodli yizuvchi Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek "Navoiy" romanida, asosan, ulug’ mutafakkir shoir Alisher Navoiy siymosini gavdalanitirishga, uning zohiriy va botiniy dunyosini yoritib berishga bel bog’lagan. Shu sababli ham asarda Navoiyga xos bo’lgan insoniy fazilatlar - ilm olish, to’g’riso’zlik, ezgulik, adolat, haqiqat, hamjihatlik, oliyjanoblik, mehr-oqibat, yaxshilik, birso’zlik, vaqtni qadrlash, kasb-hunar, tilga va boshqa ko’plab mavzularga oid maqollar o’rin egallagan.

Ulug’ insonga xos fazilatlarini yanada yorqinroq aks ettirish maqsadida yozuvchi shu xislatlarga zid bo’lgan - ilmsizlik, yolg’onchilik, egrilik, adolatsizlik, xudbinlik, ochko’zlik, poraxo’rlik, zo’ravonlik loqaydlik, befahmlik kabi illatlarni o’zida mujassam etgan xalq maqollaridan o’rinli foydalangan. Masalan, asarda ilm haqida: "Ilm igna bilan quduq qazish", "Ijod dardi - tug’uliq dardi", "Bir soat tafakkur bir yillik toatdan afzal" kabi maqollarga duch kelsak, yana asarni o’qish davomida ko’plab hikmatli so’zlarni ham uchratamiz.

Alisher Navoiy va Sultonmurad - ikkisinin ilk uchrashuvida ilm to’g’risida ulug’ zotning go’zal hikmatlari diqqatimizni tortadi: " - Himmat va g’ayratni aslo qo’ldan bermang, -dedi Navoiy suyunib. - El, ulus sizdek zotlarga g’oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog’iga chuqur tomir yoydirmog’imiz va undan mo’l hosil olmog’imiz kerak. Mana endi oshino bo’ldik. Umid qilamenki, bizni hamisha yo’qlab turursiz". Navoiyning har bir so’zida hikmat bor. Uning har bir aytgan gapidan, bildirgan fikridan ibrat olishimiz mumkin.

Zamonaviy adabiyotshunosligimiz bugungi kunda o’zgacha bo’y ko’rsatmoqda. Yozuvchilarning o’zgacha uslubi, o’zgacha yondashuvi adabiyotshunosligimiz rivojiga o’z hissasini qo’shib bormoqda. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy " romani esa shunday kitoblardan biri desak mubolag’a bo’lmaydi. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida voqealar birgina voqea atrofida yuz bermaydi. Asarda juda ko’p voqealar, turli xil taqdirlar ga duch kelishimiz mumkin. Syujetning xilma-xil voqealarga boyligi asarning qiymatini oshiradi. Bu esa o’z navbatida muallifning yutug’idir. Boisi asarning kitobxonni ko’p bo’lishi, asarni yanada qiziqarli bo’lishiga xizmat qiladi. Kitobxon diqqatini jamlab, uni fikrlashga da’vat etadi.

Oybekning "Navoiy" romani 37 bobdan iborat bo’lsa, Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani esa 4 bobdan iboratdir. Muallif Alisher Navoiyning "Hazoyin -ulmaoniy " ya’ni "Chordevon" kabi 4 qismdan tashkil topgan. Asar qismlari "G’aroyib -ul sig’ar", "Navodir -sh -shabob", "Badoe-ul-vasat", "Favoyid-ul-kibar" deya nomlangan. Muallif har bir bobda Navoiy hayoti fasllarni voqealar asosida yoritib beradi. Aynan nomlanishida ham Alisher Navoiyga izdoshlikni ko’rishimiz mumkin.

Shuningdek, Isajon Sulton romanning "Muqaddima" qismida mumtoz adabiyotimizdagi "Hamd va Na’t" lar kabi Ollohning yaratuvchanligiga madhiya bitish bilan boshlangan. Bu esa adabiyotimizda chin ma’nodagi yangilikdir. Isajon Sultonning yutug’i shundan iboratki, u qanchadan beri unutilayotgan, adabiyotimizning asriy a’nanasini davom ettirdi. Muallifning Ollohga murojaati ham o’zgacha ohangdor. "Parvardigorim! U poyaga g’ijim shoyi bo’lib yaproq yozishni buyurding, yaprog’ini yoygach, uni tekislading, beqiyos r ang-u tus va ifor ato

etding. Kunlar o'tib, quyoshning tig'iz xaroratiyu kecha muloyimligi aro unga shunday ajoyib hayotni hadya qilding, so'ng unga "So'zla va menga hamdu sano ayt!" desang ularning bari so'z aytish o'rniga chaman-chaman gul ochib yuborishdi.

Giyohga, maysaga, yaprog'u gulga, qurququshga shunday baxtiyorlik berding. Go'zalligiga, betakrorligiga turfa iforiga, borlig'iga beqiyos san'atini ham joylading. U san'at shunchalar mukammalki, har shaklda namoyon bo'lib turadi.

Inson bolasiga ham o'xshashi yo'q baxtlar ato etding, hayvon jasad ichra to'lg'in qalb yaratding, uni zavqu hayratlarga, dardu iztiroblarga, o'ylaru hikmatlarga oshno qilib qo'yding, ko'z ustiga yana bir ko'z, quloq ustiga yana bir quloq, til ustiga yana bir til, yurak ustiga yana bir yurak berding va unga ham "So'zla!" deding. Bularning barini birgina "Bo'l" degan hukming bilan qilding, qudratimdan qo'rqishing, hayratlanishing, zavqlanishing va maqtovingdir deding, ularga o'z cheksiz qudratingdan, san'atkorlikni ham hadya qilding. Son-sanog'i yo'q so'zlarni o'rgatding, har so'zga bir tilsim jo aylab, bag'riga o'z dargohingdan qudrat jo aylading. Ne'matlaring beqiyos edi, shu ne'matni ham berding, buni nechun qilding, Parvardigorim?..

Kitobni mutolaa qilar ekansiz, Isajon Sulton Navoiy obrazini, shaxsiyati va ijodini yaratishda, "Quron Karim" va ko'plab Islomiy ma'lumotlarni ham chuqur o'rganib, so'z mulkining sultoni Navoiy tafakkuri va ezgu ishlarini ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Badiiy asarning qimmati va uning o'z kitobxonlarini topa olishi, bir jihatdan, adibning hayot haqiqatini qanchalik chuqur va haqqoniy aks ettirishi bilan belgilanadi. Biz badiiy asarlarda hayot haqiqatining murakkabliklari, turli-tuman qirralari qanchalik yorqin va haqqoniy ochilganligini, adabiy shakl vositalari hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishga qanchalik xizmat qilganligini tahlil qilish va yoritishga alohida e'tibor bilan qarashimiz kerak.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning uyg'unlashgan holatini ko'rishimiz mumkin. Asarni o'qish jarayonida yozuvchi kitobxonni o'tmish voqealari sari chorlar ekan, badiiy to'qimadan unumli foydalanadi, o'z badiiy mahoratini o'sha davrda yuz bergan voqeadek yetkazib bera oladi. Romandagi voqealar rivojining kaliti sifatida "Dumli yulduz siri" bobi asosiy o'rin tutadi.

"Alisher Navoiy" romanida dastlab Navoiyninig bolalik yillari, maktab saboqlari, tog'alari bilan bo'lgan suhbat, Husayn Boyqaro bilan bo'lgan suhbatlar, shuningdek, Navoiyning oilasi, onasi, otasi, tog'alari, Qutb joriya va uning atrofidagi voqealar qalamga olingan. Voqealar asosan Hiriya bo'lib o'tadi. Muallif ekspozitsiya ya'ni voqea -hodisalar yuz beradigan joyni shu qadar mohirlik bilan ifodalaydiki, beixtiyor shu joyda hozir bo'lasiz.

Adib joy nomlarini ham alohida san'atkorlik bilan yaratadi. Hiriya, Hirirud, Astrabod nomlariga ham to'xtalib o'tadi. " Hiriya istehkom devorlari uzra rango -rang matolar xilpirar,

bayroqlar ilingan, karnay-surnay sadolari kelar, devor usti-yu osti sipoh va odamlarga to'lgan edi". Hiri bu joy nomi. Xurosonliklar Hirotni mehr bilan shunday atashgan. Adibning mahoratini qarangki, insonni o'zi yashagan joyni ham sevib erkalaydigan so'zni topa o ladi.

Asarda "Dumli yulduz" voqeasi tahsinga sazovor. Navoiy roman davomida "Dumli yulduz" ni 4 bora uchratadi. Mirsaid tog'oyi tomonidan "Aytadilarki, kim quyrug'i tikka ko'tarilgan dumli yulduzni hayotida 3 bora ko'rsa, firdavs ul a'loga kirarmish, Tangri hech shubhasiz bilguvchi" deya o'zi bilmagan holda kelajagiga ishora qiladi. Shuningdek, Navoiy hayoli "Xamsa" bilan band ekanligi, u hayolan qahramonlar og'ushida ekanligini ko'ramiz." Kelajak bilan uchrashuv" bobida suv chiqarayotgan Xusrav uni yanada ilhomlantiradi. Tanti, insonparvarligi bois Xusravga yaxshilik qiladi, o'zi uchun tog'lardan suv chiqargan Farhodni kashf etadi.

Muallif badiiy asarda g'oyani yuzaga chiqarishda syujetdan unumli foydalaniladi. Syujetda voqealar va karakter birligi yetakchi. Asarda voqealar bir syujet chizig'ida tutashtirilib yaxlit g'oyani ifodalashi zarur. Syujet tizimida obrazlar ko'p. Lekin ularning har biri Navoiy obrazini yanada to'liqroq ochib berishga qaratilgan. Syujet birligi badiiy asarda faqat katta-katta voqealargina emas, balki mayda epizodlar, xatto detallarning ham ishtirok etuvchi shaxslarning asosiy tomonlarni ochib berishga to'la xizmat qiladi. Asarda voqealar bir-biriga bog'langan, ularning markazida Navoiy obrazi turadi. Romanning mazmuni, syujeti, kompozitsiyasi juda mukammal. Voqea va hodisalar bir birini to'ldirib yanada sayqal bergan. Muallif syujetning juda murakkab yo'lini tanlagan. Oddiqlikdan qochib murakkab yo'lni tanlaydi-yu, natijada muazzam asar yaratgan. Asarning Muqaddima qismida Oллоhga hamd va na't, Oллоhni ulug'lash uning lutfi va karamidan so'z ketsa, Hiri 849 yil bobida esa Navoiy va tog'asi Muhammad Ali bilan kechayotgan sarguzashtlar ifodalanadi. Muallif asar boshidayoq nafaqat Navoiy shaxsiyatini ochib berishga balki ijtimoiy-siyosiy hayotni ham ifodalaydi. "Havzi Mohiyonda bir tantana" bobida Oллоhning uyiga kiswa ya'ni yopinchiq yopishga muvaffaq bo'lga n xalqning quvonchi ifodalangan Shayx Nuriddin va Shayx Shamsiddin ka'badan qaytganligini xalq xushkayfiyat bilan nishonlayotgani tasvirlangan.

Badiiy asarning qimmatini va uning o'z kitobxonlarini topa olishi, bir jihatdan, adibning hayot haqiqatini qanchalik chuqur va haqqoniy aks ettirishi bilan belgilanadi. Biz badiiy asarlarda hayot haqiqatining murakkabliklari, turli-tuman qirralari qanchalik yorqin va haqqoniy ochilganligini, shakl vositalari hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishga qanchalik xizmat qilganligini tahlil qilish va yoritishga alohida e'tibor bilan qarashimiz kerak

#### **ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Isajon Sulton Alisher Navoiy romani T: - 2021-yil.
2. Oybek Navoiy Yangi asr avlodi T: - 2019 yil.
3. Sulton I. Navoiyning qalb daftari G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi T: - 2010 yil.
4. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).